



Nizomiddin NOSIROV,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchi
E-mail: nnb1990nnb@gmail.com

TDPU dotsent v.b, PhD H.Bozorov taqrizi asosida

RESEARCH AND ANALYSIS OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING FUTURE ENGINEERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES

Annotation

This article talks about the pedagogical and psychological aspects of the development of professional competence and preparation for professional activity in engineering, and also shows specific examples of its direct application. At the same time, the features of the professional activity of an engineer (areas of training) and his training at a higher educational institution, the basic professional skills necessary for the successful implementation of engineering activities, as well as the personal characteristics of engineers are mentioned.

Key words: competence, physics course, pedagogical and psychological, independent work, laboratory, independent activity, special ability.

ИССЛЕДОВАНИЕ И АНАЛИЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье говорится о педагогических и психологических аспектах развития профессиональной компетентности и подготовки к профессиональной деятельности в инженерном деле, а также показаны конкретные примеры ее непосредственного применения. При этом упоминаются особенности профессиональной деятельности инженера (направления подготовки) и его обучения в высшем образовательном учреждении, основные профессиональные навыки, необходимые для успешного осуществления инженерной деятельности, а также личностные характеристики инженеров.

Ключевые слова: компетентность, курс физики, педагогический и психологический, самостоятельная работа, лаборатория, самостоятельная деятельность, особая способность.

BO'LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH

Annotation

Ushbu maqolada muhandislik faoliyatida uning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari haqida so'z yuritilgan bo'lib, uning bevosita qo'llanilishiha aniq misollar ko'rsatib o'tilgan. Bunda, muhandis kasbiy faoliyatining xususiyatlari (tayyorlash tendensiyalari) va uning olyi ta'lim muassasasida o'qitilishi, muhandislik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy kasbiy qobiliyatlar hamda muhandislarning shaxsiy xususiyatlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, fizika kursi, psixologik-pedagogik, mustaqil ish, laboratoriya ishi, mustaqil faoliyat, asosiy qobiliyat, maxsus qobiliyat.

Kirish. Muhandislar tomonidan hal qilinadigan vazifalar ko'lamining oshishi munosabati bilan umuman muhandislik faoliyatida tub o'zgarish yuz berayapdi, muhandislik ishlarning mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgarayapdi hamda yangi mazmun kasb etmoqda. Kasbiy faoliyati davomida muhandislar hal qiladigan vazifalar Oliy ta'lim yurti bitiruvchilarining ma'lum fazilatlarini talab qiladigan muhandislik vazifalarini belgilaydi. Mazkur vazifalarda har bir fan, xususan fizika fanining o'rni beqiyosdir. Bu borada respublikamizda qator samarali ishlar olib borilmogda. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli talabalarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, olyi ta'lim muassasalarida vaqt o'tishi bilan ta'lim mazmunida sezilarli o'zgarishlar ro'y berishi shu bois, muhandislik faoliyati unga qo'yilayotgan ijtimoiy talablar hamda ta'lim olish jarayonidagi fan mazmunini takomillashtirish, muhandislik ta'limining pedagogik-psixologik jihatlarini o'rghanish, Oliy ta'limda mutaxassislarini tayyorlash asoslarini, muhandis kasbiy faoliyatining xususiyatlari va uning olyi ta'lim muassasasida o'qitilishiha doir qarashlar bir qator ilmiy ishlarda o'z aksini topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi J.D.Avazovning bo'lajak muhandislarni tayyorlash jarayonida ularni boshlang'ich kurslardan boshlab talabalarning grafikaviy

tayyorgarligini oshirish, bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda maqsad, pedagogik jarayon va natijaviy bloklariga ustuvorlik berish, muhandislik va kompyuter grafikasi o'quv mashg'ulotlarida interfaol ta'lim metodlari va innovatsion texnologiyalarini qo'llashga doir fiklariga qo'shilgan holda, muhandislik kasbiy faoliyati hamda fundamental bilimlarga asoslangan akademik faoliyat mazmuniga o'quv-ilmiy va hayotiy tajribalarni o'zaro qiyoslash, tahlil qilishga ustuvorlik berish kerakligini ta'kidlab o'tamiz.

Bo'lajak muhandislarning kelajak faoliyatiga oid masalalarini fizika mazmuniga mos holda yechish yo'llarini o'rghanish ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishlari, amaliy-kasbiy faoliyatida asqotadigan ko'nikmalarning shakllanishiga asos bo'ladi. U.B.Abdiyev uzuksiz fizika ta'limida didaktik prinsiplar asosida muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda energiya tejamkor texnologiyalarga doir zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish, fizika ta'limida bu jarayonlarning uzviyligini ta'minlash va ularni talabalarga yetkazishda mantiqiy-ijodiy fikrlash, mustaqil ishish va konstruktorklik qobiliyatlarini rivojlantirishini ta'kildaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya va Fransiyada muhandislik maktablari tajribasini hisobga olgan holda, muallif M.K.Chebotar'ov alohida e'tiborini uchta: shaxsiy yo'naltirilgan, vakolatiga asoslangan va faoliyatiga asoslangan yondashuvga qaratilayotganligini, bo'lajak mutaxassis nazariy bilim olish bilan birga amaliy muammolarni hal etish, mustaqil o'rghanish va o'zini takomillashtirishga tayyorlanishi zarurligini ta'kildaydi.

Germaniyalik tadqiqotchi L.A.Chuxno muhandislar tayyorlashda ta'limni tabaqalashtirish fanlarning barcha talabalar uchun majburiy va maxsus bloklarga bo'linishi lozimligi, ta'lim talabalarga kerakli ma'lumotni olishga emas, balki ijod qilishni boshlash, mustaqil fikrash qobiliyatini va o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish istagini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi.


Tadqiqot metodologiyasi. Muhandis shaxsining kasbiy muhim xususiyatlarini aniqlash, u tomonidan hal qilinadigan vazifalarni tahlil qilish, Oliy ta'limming davlat ta'lim standartlari asosida muhandisning kasbiy faoliyatini pedagogik jihatdan tadqiq qilish zarurati mavjud. Adabiyotlar tahliliga tayangan holda, bo'lajak muhandislarga qo'yildigan talablar (loyihalash va konstrukturlik, ishlab chiqarish texnologiyalari, ilmiy-tadqiqot, ishni tashkil etish va uni boshqarish) hamda ularni tayyorlash tendensiylariga to'xtalib o'tamiz:

1. **Loyiha-konstrukturlik:** yangi konstrukturlik yechimlarini o'zlashtiradi, yangi materiallarni ishlab chiqadi, texnik xususiyatlarga muvofiq yangi loyihalarni ishlab chiqadi, ishlasmalarini amalga oshirish samaradorligini iqtisodiy asoslashni amalga oshiradi, chizmalar va texnik hujjatlarni to'ldiradi, texnik vazifalarni ishlab chiqadi va ularni bajaradi.

2. **Ishlab chiqarish-texnologik:** yangi ishlasmalar yaratish yoki mavjudlarini yangilash orqali ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish (optimallashtirish)ni ta'minlaydi, prototiplarni ishlab chiqaradi va tajribalarda (eksperimental) tekshiradi, ishlasmalar ishslashini nazorat qiladi.

3. **Ilmiy-tadqiqot:** korxonaning rivojlanish yo'nalişlarini zamonaviy texnologiyalar asosida belgilaydi va

Bo'lajak muhandisning mustaqil ishslash uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlari (1-rasm).



Keyingi blokka tahliliy, bilish qobiliyatları, shuningdek, tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish qobiliyati va boshqalar fundamental fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar kiradi. Bunda texnik fikrash, muhandislik muammolarini hal qilish, standart

amalga oshiradi; ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytirish uchun doimiy ravishda ishlaydi, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasini yaxshilash maqsadida ilmiy tadqiqotlarda ishtirot etadi.

4. **Tashkiliy-boshqaruv:** ishlab chiqarish jarayonini, texnik hujjatlarni tayyorlashni, mehnatni muhofaza qilish qoidaligiga riyoqa qilishni, texnik va ishlab chiqarish intizomini tashkil qiladi va nazorat qiladi.


Tadqiqotchi Z.N.Seydametova, ilmiy tadqiqotlar, loyiha-konstrukturlik va ishlab chiqarish texnologiyasidan tashqari, ishlab chiqarishni axborotlashtirish sharoitida muhandislik faoliyatining axborot turi ham muhim, deb hisoblaydi.

Fizika o'qitish jarayonida bo'lajak muhandislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning taskhiliy-funksional, mustaqil faoliyatiga asoslangan didaktik tamoyillariga asoslangan modelida: bo'lajak muhandislar tomonidan o'rganilayotgan tabiiy fanlar siklidan umumiy fizika kursi barcha asosiy umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun eng katta imkoniyatlarga ega bo'lgan fan sifatida modellashtirilishi, maxsus o'quv kursi doirasida o'tkazilishi mumkin bo'lgan barcha dars shakllaridan amaliy mashg'ulotlar ma'ruza, laboratoriya ishi, guruh va mustaqil ish elementlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan pedagogik shakl sifatida qarab o'tishimiz mumkin.

Muhandislik faoliyatini muvaffaqiyatlari amalga oshirish: mustaqil ishslash qobiliyati uchun mas'ul bo'lgan shaxs xususiyatlarini hisobga olish ularning keyingi o'quv va ish faoliyatiga bog'liq bo'ladi (1-rasm.).

modellardan ijodiy foydalana olish qobiliyatları rivojlanishi bilan ham muhim hisoblanadi, chunki u muhandislik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oladi(2-rasm.).


Muhandisning masala yechimini topishda zarur bo'ladigan qobiliyatları va xususiyatlari (2-rasm).



Navbatdagi blok matematik (asosan algebraik) qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Muhandislik masalasini ma'lum bir tushunchani qabul qilish darajasida yechish, matematik

hisoblashlarni amalga oshirish va fizika fanini o'rganishda bu qobiliyatlarini laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda shakllantirishni ko'zda tutadi (3-rasm.).


Bo'lajak muhandislarda matematik qobiliyatni rivojlantirish xususiyatlari (3-rasm).



To'rtinchi blok ishlab chiqarish funksiyalarini bajarish, texnik qurilmalarni boshqarish, chizmalarini bajarish qobiliyati uchun mas'ul bo'lgan qobiliyatlarini taqdim etadi, agar qurilmalarni yig'ishda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda

vazifalarni bajarish qobiliyati laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda shakllanmagan bo'lsa, ishlab chiqish oson bo'lmaydi (4-rasm.).

Bo'lajak muhandisning ishlab chiqarishda zarur bo'ladigan qobiliyatları va shaxsiy xususiyatlari



(4-rasm).

Tahlil va natijalar. Muhandis uchun talab qilinadigan shaxsiy xususiyatlarni o'rganish davomida shakllanadigan shaxs qobiliatlarning asosiy qismi fundamental fanlarni o'rganishda shakllanadi. Bu esa, talabalarni kasbiy tayyorlashning psixologik-pedagogik jihatlari muhandislilikning konstrukturlik funksiyalarini kasbiy fanlarni o'zlashtirishdarga akademik faoliyat mazmuniga singdirilishiga asos bo'ladi. Ko'pgina maxsus ko'nikmalar ularsiz rivojlanish mumkin bo'lmasligi umumiy ko'nikmalar bilan mos kelishi, masalan, standart modellarni bilish-standart modellarni yangi usulda ishlatalish; vizual va abstrakt-mantiqiy fikrlashning o'zaro aloqasi - chizmalar va sxemalarni o'qish va tushunish qobiliyati, mustaqil ravishda o'quv vazifasini belgilash qobiliyati - muhandislik muammmosini ko'rish qobiliyati, ta'lim muammolarining oqilona yechimlarini topish qobiliyati - texnik muhandislik muammolarini to'g'ri hal qilish qobiliyati va boshqalar. Kelajakda maxsus fanlarni o'rganishda bu qobiliyatlar maxsus qibiliyatlar bilan birgalikda takomillashib boradi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslangan xolda fundamental fanlarni o'qitishni tashkil etish, bo'lajak muhandislarni umumiy fizika kursiga tayyorlash uchun quyidagi shart-sharoitlarni kiritish zarur deb hisoblaymiz:

1) muhandislik faoliyati bosqichlari va fizik muammolarini hal qilish bosqichlarini o'qitishning kasbiy yo'nalganligini amalgalash oshirish uchun taqqoslash;

2) umumiy fizika kursida nazariy materialni, amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish sifatini oshirish va o'quv jarayoniga ijobjiy motivatsiya yaratish maqsadida muammoli sohani tizimlashtirish va tuzish;

3) bo'lajak muhandisning muhim kasbiy sifatlari va shaxs xususiyatlarini shakllantirishda umumiy fizika kursi masalalarini va mexandislikga oid masalalar uyg'unligida muammolarining umumlashgan tasnifini yaratish;

4) talabalarning mustaqil ishlarini optimal tashkil etish bo'yicha o'quv-uslubiy ta'minotini rivojlantirish.

Oliy o'quv yurtida fundamental mashg'ulotlarni o'rganishda kichik kursdag'i talabalarning psixologik va yosh xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak, chunki, tabiiy fanlarning sikli asosan oliy o'quv yurtida o'qishning birinchi yoki ikkinchi yillarda o'rganiladi. Ammo, bizning fikrimizcha, talabalar tabiiy fanlar siklining aksariyat qismini o'rtacha maktabda o'qiydilar, shuning uchun boshlang'ich kurslarda ular o'quv jarayonining o'zi bilan bog'liq tanish muhitga tushishi ularda ijobjiy motivasiyaning paydo bo'lishiga yordam beradi. Bu ayni paytda talabalarni kasbiy tayyorlashning psixologik-pedagogik jihatlariga aloqador bo'lgan boshqaruv funksiyalarini belgilab beradi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, mehnat bozorida bo'lajak muhandislarning raqobatbardoshligini ta'minlashda talabalarning umumiy fizika kursini o'rganish davridan muhim kasbiy xususiyatlar va shaxsning fazilatlarini yaratish, ijobjiy motivatsiyani shakllantirish, talabalarда kasbiy mazmundagi va maxsus fanlarga doir masalalarga fizikaviy yondashuv asosida mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga kelish mumkin. Kelajakda muhandislarning yangi imkoniyatlar, masalan, qarorlar uchun mas'uliyat, shaxs xususiyatlarini shakllantirish, mustaqil ishslash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, fikrlarini ilmiy nuqtai nazardan asoslashlarida fizika fani mazmuniga mutaxassislik masalalarini kiritish hamda ularni fanni o'rganish kontekstida yechish usullarini o'zlashtirish asosiy omillardan bo'lib, talabalarni kasbiy tayyorlashda tajribalarning qiyosiy tahliliga ko'ra xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR

- Baratovich, N.N. (2023). A model for implementing professional orientation by future engineers in the general physics course. *For Teachers*, 16(1), 178-183.
- Baratovich, N.N. (2023). Modeling method of professional competence development of future engineers. *For Teachers*, 16(1), 184-188.
- Baratovich, N. N. (2023). THE STAGES OF SOLVING ENGINEERING PROBLEMS FROM PHYSICS AND ITS EDUCATIONAL AND METHODOLOGICAL SUPPORT. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 13, 52-57.
- Nosirov, N.B. (2022). Educational-methodical support for solving engineering problems from physics and its stages. *Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal*, 3(10), 98-103.
- Baratovich, N. N. (2023). A model for ensuring consistency in solving physical problems.(On the example of engineering activity). *Eurasian Scientific Herald*, 21, 39-43.
- Baratovich, N.N. (2023). Study and methodology of solving engineering problems in physics. Conference, 64-67.
- Baratovich, N.N. (2023). Physical-engineering problems stages of solution and its didactic tasks. Conference, 102-104.
6. Uralbaevich, T. I., Baratovich, N. N. (2023). Formation of main general competences of future engineers and its stages. Conference, 80-83.
- Begmatova, D. A., Nortojiyev, A. M. (2020). Integrative approach in general physics, scientific-methodical journal "Physics. Mathematics and Informatics", Tashkent, (5), 28-33.
- Mukhammadievich, N.A. (2022). Formation of the professional competence of students through the interdisciplinary integration of physics into the sciences of architecture and construction. Conference, 170-172.
- Nortojiyev, A.M., Begmatova, D.A. (2021). Methods of conducting physics laboratory courses on the basis of interdisciplinary integration. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 3), 105-107.
- Nortojiyev, A.M. (2023). Formation of professional competence of students through integration of physics in architecture and construction sciences. *For Teachers*, 16(1), 189-194.
- Худайбердиев, С.С., Нортожиев, А.М. (2022). Техника олий таълим муассасаларида физикадан амалий машгулотларни лойихалаш методи орқали ўтказиш усули. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(7), 104-109.
- Begmatova D.A., Nortojiyev A.M., Khudayberdiyev S.S., Mahmadiyrov A.Z., Nosirov N.B. The importance of physical exercises in the training of specialists in the field of architecture and construction // International Conference on Problems and Perspectives of Modern Science. AIP Conference Proceedings 2432, 030056 (2022); <https://doi.org/10.1063/5.0089959> Published Online: 16 June 2022.

15. Nortojiyev A.M. Teaching physics on the basis of integration of architecture and building sciences // International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. – Hosted from Washington, DC USA, 2022. – P. 116-117.
16. Nortojiyev A.M. Methods of ensuring integrative approach to teaching physics // International Multidisciplinary Conference on Scientific Developments and Innovations in Education. - Greece, 2022. - P 19-21.
17. Nortoiev, A. (2023, June). Methods of formation of professional competence of students in teaching physics on the basis of integration of architecture and building sciences. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
18. Нортожиев, А. М. (2023). ФИЗИКАНИ АРХИТЕКТУРА ВА ҚУРИЛИШ ФАНЛАРИГА ИНТЕГРАЦИЯСИ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛАНТИРИШ. *Ustozlar uchun*, 16(1), 189-194.
19. Носиров, Н.Б. (2022). Физика фанидан мұхандислик масалалары енишнинг ўқув-методик таъминоти ва унинг босқичлари. *Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal*, 3(10), 98-103.
20. Mukhamadalievich, N.A. (2022). The method of conducting practical classes in the subject of physics in technical higher educational institutions through the method of designing objects of professional activity. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 350-354.
21. Begmatova D.A., Nortojiyev A.M. Integration of conducting physics classes in higher educational institutions in the field of construction// Scientific information of Tashkent State Pedagogical University. - Tashkent, 2020. - 12. - B. 40-45.
22. Khudaiberdiev, S.S., Nortoiev, A.M. (2022). The method of conducting practical training in physics in technical higher education institutions through the design method. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 104-109.
23. KS Salievich, NA Mukhammadievich, NN Baratovich. PEDAGOGICAL ASPECTS OF PREPARING FUTURE ENGINEERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY. *Ustozlar uchun* 19 (2), 315-318.
24. Muhammadaliyevich, N. A. (2022, January). Methods of ensuring integrative approach to teaching physics. In Archive of Conferences (pp. 19-21).
25. Сейдаметова З.Н. Составляющие информационной компетентности инженеров-педагогов швейного профиля / Виник Луганського національного університету ім.. Тараса Шевченка. Серія: Педагопчш науки. –Луганськ : вид. віщ. ЛНУ, 2013. – № 3 (262). –С. 153 – 158.
26. Чухно Л.А. Оргащашя навчання обдарованих студенлв у вищих технических навчальних закладах Шмеччини : автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Київ. 2008. – 22 с.
27. Avazov J.D. BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH ("Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanini o'qitish misolida) // p.f.f.d.(PhD) dis.avtoreferati. –Qarshi. QardU, 2022. –50 b.
28. Чеботарьов М.К. Особливост професійного становлення сучасного фахівця в умовах шновацьшого розвитку суспільства / Теорія і практика управління соціальними системами, 2010. – № 3. – С. 53 – 58.
29. Abdiev U.B. Muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga oid materiallar asosida uzlaksiz fizika ta'limi mazmunini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. T.:O'zMU, 2020. –70 b.